

TALABALARNI GRAFIK VA IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA ARXITEKTURA VA DIZAYNNI MAZMUN MOHIYATI

Ismag'ilova Madinabonu Shovkat qizi

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti

dizayn yo'nalishi Diz 23/1 talabasi

ismagilovamadina20@gmail.com

Texnika va fan texnologiyalarni tez fursatlar oralig'ida o'zgarib turishi o'ziga yarasha yutuqlar va muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Xalqimiz madaniyatining rivojlanish tarixida pedagogik fikrlar taraqqiyoti, jumladan ular yaratgan o'quv vositalarining mazmunan va shaklan takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etib, usiz ta'lim-tarbiya sohasidagi madaniy-ma'rifiy rivojlanishni aniq tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalqaro Akademik And Fine Arts Competition (AFAC)–xalqaro tasviriy san'at akademiyasida o'quvchilarni milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishini shakllantirishda arxitektura va dizayn fanlaridan tashkil etiladigan mashg'ulotlar, darsdan tashqari ishlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Arxitektura - foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'ati. Me'mor inson hayoti va faoliyati uchun zarur fazoviy muhitni tafakkur kuchi bilan avval ijodiy loyihada rejalab, uni amalda yuksak did va mahorat bilan bunyod etadi. Interier esa (fransuzcha-nterier, lotincha- ichki dunyo, inta-ichkarida, antonim-eksteryer) - me'moriy kompozitsiya nazariyasida obyektning ichki ko'rinishi, tashqi ko'rinish tushunchasiga qarama-qarshi bino, inshootning tashqi ko'rinishi.

Mutaxassislik yo'nalish talabalarini fazoviy va ijodiy tasavvurlarini yanada takomillashtirish, texnika , fan texnologiyalar rivojini zamon talablariga mos holda yuksaltirish, arxitektor va dizaynerlarni yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash zarur vazifalardan hisoblanadi. Arxitektor va dizaynerlarga ta'lim berish jarayonida bino va inshootlar tashqarisi va ichkarisini to'liq o'zlashtirish, loyihalash jarayonlarini puxta o'rganish muhim sanaladi. Arxitektura-qurilish chizmalari o'z xususiyatiga ko'ra texnik va mashinasozlik chizmalaridan o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda farq qiladi. Buning sababi: -tasvirlanayotgan obyektlarning katta o'lchamlarda bo'lishi; -konstruksiya tarkibiga kiruvchi materiallar turlarining ko'pligi; -sanitariya texnika jihozlarini joylashtirish qoidalari va ularning chizmada belgilanishi; -plan, qirqim, fasadni bajarishning o'ziga xos tomonlari; -bosh plan chizmalari va undagi shartli belgilar. Interier dizaynida esa hamma narsa to'plangan bo'ladi: maydon xisobi, ventilyatsiya tizimlarini loyixalash, kommunikatsiyalarni yotqizishdan tortib qaysi joyda eksklyuziv lampa o'rnatilishi, devorlar geometriyasi mebel bilan mos kelishiyu pol qoplami qaysi rangda bo'lishigacha. Interier yaratish bu shunchaki parda ranglari va gilamlar joylashishini tanlash emas, bu me'morchilik, injenerlik, rassomchilik va modani o'z ichiga oladigan, maksimal darajada

xuzur olish uchun xamma narsa mujassamlashtirilgan, siz o'zingizni tinch va qulay xis qiladigan inshoot yaratish uchun zarur bo'lgan barcha jarayonlarni tushunishga asoslangan fan. interyer qanday ko'rinishidan qat'iy nazar, yaxshimi yoki yomonmi, chiroylimi yoki xaddan tashqari serxashammi, buni yana bir marta takrorlash oson ish emas. Dizayn bu estetik jozibadorlik, ammo bu aysbergning cho'qqisi, bu jarayonning qorong'u suvlari ortida, oxir oqibatda sizning uyingiz, ofisingiz yoki restoraningiz siz xoxlaganday ko'rinishga kirishi uchun bu san'atni ertayu kech o'rgangan mutaxassisning uzoq davom etgan puxta mehnati yashirinib yotadi.

Talabalarni grafik va ijodiy faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini o'rgatishdan iboratdir. Ular quyidagilardan iborat:

talabalarning umumkasbiy tayyorgarligi jarayonida arxitekturaviy ijodkorlik va dizaynga oid bilimlar tizimiga ega bo'lishi;

arxitekturaviy ijodkorlik va dizaynning tashkiliy va funksional asoslari bilan tanishtirish; mutaxassislik bo'yicha ixtirolar, kashfiyotlar, ratsionalizatorlik va patentlash asoslari bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish;

har bir bino va inshootlarni qurish, xona interyerlarini dizaynga moslash masalalarini yechish metod va usullaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;

arxitektura va dizaynga mos qurilish ob'yektlari uchun texnik hujjatlarni tuzish;

mustaqil ravishda qurilish ob'yektlari, xona interyerlari va ularning modellarini loyihalay olish;

arxitekturaviy ijodkorlik, interyer dizayn bo'yicha o'lchamlar, bosh reja, kompozitsiya, dastgoh va boshqa jihozlarni mustaqil loyihalay olish;

arxitektorlarni va dizaynerlarni ijodiy faoliyatda muvozanat, proportsiya simmetriya, asimmetriya, ritmlarda asosiy metodik, ilmiy asoslarini bilish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday yaratuvchanlik insondan o'zining hayoliy omiliga suyanagan holda ijodiy yondashishni talab qiladi. Arxitekturaning ob'yektiv tavsifida ichki makonning roli, shu jumladan majoziy va badiiy fazilatlarni aniqlashda tashqi hajim yoki interyerining ustuvor qiymati masalasini tushunish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqberdiyev, B. R. (2021). Oriental architectural monuments. the objectives and tasks of the course of designing architectural elements. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 276-284.

2. Haqberdiyev, B. R. (2022). Integration of engineering graphics and design science in a comparative description of methodological approaches. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(7), 67-70.

3. Haqberdiyev, B. R. The Role of Engineering Graphics and Design Sciences in the Study of the Analysis of Patterns in the Ancient Monuments of Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*, 4(7), 49-53.

4. Haqberdiyev, B., & Ismag'ilova, M. (2025, June). Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarning grafik va ijodiy kompetentligini shakllantirish. In "O'ZBEKISTON—2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (Vol. 1, No. 2, pp. 106-108). Scienceproblems Team LLC.
5. Haqberdiyev, B. R., Ismag'ilova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). Raqamli texnologiyalarda arxitektura va dizayn. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 65-66.